

**REVMATIZM KASALLIGI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA, BEMORDA
KUZATILADIGAN BELGILAR VA DAVOLASH CHORA-TADBIRLARI**

Abduraxmonov Shaxzod

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada revmatizm kasalligi haqida umumi tushuncha berildi, shu bilan bir qatorda kasallik vaqtida bemorda kuzatiladigan asosiy belgilar, kasallikni oldini olish va davolash chora-tadbirlariga alohida to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: revmatizm, yurak revmatizmi, endokardit, perikardit, miokardit, streptokokk infeksiyasi, poliartrit, artralgiya, isitma.

KIRISH

Revmatizm- bu biriktiruvchi to'qimaning yallig'lanishi bilan tavsiflanadigan kasallik bo'lib, bunda asosan bo'g'imlar yallig'lanishi kuzatiladi. Bu kasallik asosan bolalarda va o'smirlarda kuzatiladi. Ayollar erkaklarga qaraganda 1,5-2 barobar ko'proq kasallanadi. Kasallikda tananing qaysi qismida namoyon bo'lismiga ko'ra quyidagi turlari tafovud qiladi.

1. Yurak revmatizmi
2. Qon-tomir revmatizmi
3. Teri revmatizmi
4. Markaziy asab tizmining revmatizmi
5. Seroz membranalar revmatizmi
6. Artikulyar revmatizm

Yurak revmatizm endokardit, perikardit, miokardit kabi kasallikkarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, yurak yetishmovchiligi, klapan shakllarining o'zgarishi va yurak teshiklarining torayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Material va usullar: Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar va ilmiy maqolalar o'rganilib tahlil qilinganda Revmatizmning keltirib chiqaruvchi sabablar hozircha 2 guruhga ajratilishi ma'lum bo'ldi. Bular:

1. Gemolitik streptokokk infeksiyasi
2. Organizm reaktivligining ortishi

Revmatizm bilan og'rigan bemorlarda kasallik boshlanishidan avval angina yoki surunkali tonzillit bilan og'riganligi aniqlangan.

Revmatizmning o'ziga xos xususiyatlari, a'zo va a'zolar tizimini zararlashi va boshqa bir qancha xususiyatlari inobatga olinib 5 xil ko'rinishda bo'ladi. Revmatizmning o'tkir kechishi, kasallik birdan boshlanib, bir nechta klinik belgilari namoyon bo'ladi. Patologik jarayonlar yuqori faoliykda o'tadi. Davolanish tez va natijali bo'ladi. O'rtacha o'tkir kechishida esa xuruj 3-6 oy davom etadi. Klinik belgilari bemorda biroz sustroq namoyon bo'ladi. Davolanish ham o'rtacha tezlikda bo'ladi. Revmatizmda yurak va qon tomirlar tizimi jarohatlaydi. Shu sababli, revmatizmning hamma belgilarini yurak va yurakdan

tashqari belgilarga bo'lish maqsadga muvofiq bo'lib, kasallikning klinik manzarasini shu nuqtai nazardan o'rganish zarur. Revmatizmning klinik manzarasi:

1. kasallikning davri,
2. yallig'lanish jarayonining faollik darajasi,
3. kechish xususiyati,
4. tabiati,
5. yurak yetishmovchiligi mavjudligi va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqot natijasi: Kasallikning rivojlanishi va klinik manzarasi shakllanishida uchta asosiy davmi farq qilish kerak. Birinchi (yashirin) davr, odatda streptokokk infeksiyasi tugab, revmatizm xuruji boshlanguncha 2-4 hafta davom qiladi. Bu davr tana sezuvchanligi oshib, biriktiruvchi to'qimaning shikastlanishi ro'y beradi. Bu davr ba'zan klinik belgilarsiz yoki angina, surunkali tonsillitdan kechikib tuzalishga xos belgilar: o'zni yomon his qilish, terlash, subfebrilitet bilan kechadi. Qonda streptokokk antigeni, antitanalar titri ko'tarilishi, ECHTning o'rtacha oshishi kuzatiladi.

Bemor revmatizimga shubha qilinganda, quyidagi belgilarga alohida e'tibor berish lozim. Asosiy belgilar: revmokardit, poliartrit, teri osti revmatik tugunchalari, halqasimon eritema. Qo'shimcha belgilar: artralgiya, isitma, tez charchash, adinamiya, terining oqarishi, vazomotor labillik, kapillyarlar o'tkazuvchanligining oshishi, burundan qon ketishi. Agarda revmatizm o'z vaqtida aniqlanmasa va davo chora-tadbirlari ko'rilmasa bemorda turli xil asoratlar paydo bo'ladi. Bular: aritmiya; qon aylanishining buzilishi; yurak yetishmovchiligi; miya ishemiyasi; taloq, buyrak infarkti; katta qon tomir tromboemboliyasi.

Revmatizmni davolashda turli xil terapiya turlari qo'llaniladi:

- penitsillin seriyasining antibiotiklarini tayinlash streptokokknii yo'q qilishga yordam beradi;
- steroid bo'limgan yallig'lanishga qarshi preparatlarni qo'llash (Voltaren, indometazin) yallig'lanish jarayonining faolligini pasaytiradi;
- glyukokortikoidlarni (prednizolon) tayinlash yurakning yallig'lanishini oldini olishga yordam beradi;
- riboksin, kokarboksilazani tayinlash (yurakdagi metabolizmni yaxshilashga yordam beradi).

Xulosa. Har qanday kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko'rish muhimroqdir. Nafas tizimi kasalliklari bilan ko'p og'riydigan bemorlarga nisbatan ehtiyyotkor bo'lish lozim. Chunki aynan, angina va surunkali tonsillit kabi kasalliklardan so'ng ko'p hollarda revmatizm kasalligi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qizi T. J. I., Farrukh S. Treatment of myocardial infarction and first aid //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D3. – С. 317-320.
2. Shernazarov F., Tohirova J., Jalalova D. Types of hemorrhagic diseases, changes in newboens, their early diagnosis //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D5. – С. 16-22.
3. Tohirova J., Shernazarov F. Atherosclerosis: causes, symptoms, diagnosis, treatment and prevention //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D5. – С. 7-12.
4. Tohirova J., Shernazarov F. Symptoms of hymoritis, treatment, methods of folk medicine, prevention //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D8. – С. 983-990.
5. Shodiyeva D. et al. HISTORY OF STUDY OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 20-29.
6. Johonshoh E. et al. Miokard infarkti kelib chiqish sabablari va davolash chora tadbirlari //IQRO. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 248-250.
7. Tohirova J. TETRA OF FALLO CAUSES, MORPHOLOGY, CLASSIFICATION, CLINICS, DIAGNOSIS, TREATMENT //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D7. – С. 556-561.
8. Tohirova J. RHEUMATIC DISEASE: SYMPTOMS, DIAGNOSIS, TREATMENT METHODS, PREVENTION, COMPLICATIONS //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D7. – С. 549-555.
9. Madaminov M. MYOCARDIAL INFARCTION CAUSES, SYMPTOMS, RISK FACTORS, FIRST AID AND TREATMENT AND MEASURES TO REDUCE RISK FACTORS //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D7. – С. 17-20.
10. qizi Tohirova J. I., og'li Ibragimov B. I., og'li Shernazarov F. F. CONGENITAL HEART DISEASE-CAUSES, CLASSIFICATION, DIAGNOSIS, TREATMENT, COMPLICATIONS, CONSEQUENCES //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 84-89.